

JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI

Soni-birlikda



- To'g'ridan to'g'ri kelib tushgan yozma murojaatlar
- Boshqarmaning elektron pochta va virtual qabulxona orqali kelib tushgan murojaatlar
- Boshqarma rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabuldagi og'zaki murojaatlar


2025-yil yanvar-sentabr oyi

Viloyat statistika boshqarmasiga 2025-yilning yanvar-avgust oylarida jismoniy va yuridik shaxslardan **55** ta (o'tgan yilning shu davrida **84** ta) murojaatlar kelib tushgan.

Shu jumladan, kelib tushgan murojaatlarning **29 tasi** to'g'ridan to'g'ri kelib tushgan yozma murojaatlar, **24 tasi** boshqarma rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabuldagi og'zaki murojaatlar, **2 tasi** virtual qabulxona orqali kelib tushgan murojaatlardan iborat.

Murojaatlar: (mazmun-mohiyati bo'yicha)

Ulushi-foizda




Kelib tushgan murojaatlarning mazmun mohiyati yuzasidan qilingan tahlillarga ko'ra, 14 tasi (25,5 foiz) Viloyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va boshqa statistik ma'lumotlarni taqdim etish so'ralgan, 12 tasi (21,8 foiz) nafaqa hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ish staji, ish haqi to'g'risida arxiv ma'lumotlarini taqdim etish yuzasidan, 12 tasi (21,8 foiz) Statistik hisobotlarni to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirish berish yuzasidan, 11 tasi (20, foiz) Boshqa masalalar yuzasidan, 6 tasi (10,9 foiz) Davlat registr bazasiga kiritish, chiqarish, faoliyat turi, statistik kodlar berish bo'yicha ma'lumotlar yuzasidan kelib tushgan murojaatlarni tashkil qilgan.

- Viloyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari
- Nafaqa hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ish staji, ish haqi to'g'risida arxiv ma'lumotlarini olish
- Statistika hisobotlarini to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirishlar berish
- Boshqa murojaatlar
- Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasidan ma'lumotlar berish

Hududlar bo'yicha taqqoslama tahlili


Soni-birlikda



Viloyat statistika boshqarmasiga asosiy qismi **10** ta Namangan shahrida, **9** ta Namangan tumanida, **6** ta Davlatobod tumani, **4** ta Uychi tumani, **3** ta Norin tumani, **3** ta Pop tumani, **3** ta To'raqo'rg'on tumani, **3** ta Chortoq tumanida, **3** ta Kosonsoy tumanida, **2** ta Mingbuloq tumanida, **2** ta Uchqo'rg'on tumanida, **2** ta Chust tumani, **2** ta Yangiqo'rg'on tumani, **2** ta boshqa murojaatlar, va **1** ta Yangi Namangan tumanidan murojaatlar kelib tushgan.


Murojaatlarni ko'rib chiqish holati

Soni-birlikda



Viloyat statistika boshqarmasiga kelib tushgan murojaatlarning **31** tasiga chora ko'rildi, **24** tasi tushuntirildi, ko'rib chiqish jarayonida hamda rad etilgan murojaatlar mavjud emas.

Murojaatlar turlari bo'yicha




Tahlillarga ko'ra, murojaatlarning jamiga nisbatan 18 ta (**32,7%**) jismoniy shaxslar va 37 ta (**67,3%**) yuridik shaxslarning murojaatlariga to'g'ri kelgan.

Eslatib o'tamiz:

O'z faoliyatingizda statistika idoralari bilan bog'liq masala va muammolarga duch keldingizmi, statistik yoki tahliliy ma'lumot olishni xohlaysizmi, quyidagi,

- 
- **Ishonch telefonlari**
 - (69)211-00-72

- 
- **Viloyat statistika boshqarmasi rahbariyatiga bevosita murojaat etish**
 - (0369)227-85-08

- 
- Pochta manzili – namstat@umail.uz elektron manziliga murojaat etishingiz mumkin.

Namangan viloyati statistika boshqarmasi

Murojaatlar bilan ishlash va ijro intizomi nazorati

Nashr uchun mas`ul:

E. Mamatqosimov
(0369) 227-85-06